



## XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT KENGASHINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

II-5-025-14-220-K/24

Yangihayot tumani

### Yangihayot tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrda "2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VII-4-024-14-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosarining 2024-yil 26-dekabrda 02-2346-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrda "2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VII-4-024-14-0-K/24-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **95 113 490,0 ming so'm** va xarajatlari **95 113 490,0 ming so'm** etib belgilanganligi hamda Yangihayot tumani mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **313 000,0 ming so'm** etib tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrda VII-4-024-14-0-K/24-son qarorining 3-bandiga asosan:

**a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:**  
jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;  
yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

**b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar budjeti va tuman budjeti o'rtasida taqsimlanadi:**

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan solig'i teng ulushlarda;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlangani inobatga olinsin.

4. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Yangihayot tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **771 063,0 ming so'm** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (A.Maxmudov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Timerov), tuman soliq inspeksiyasi (J.Ergashov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

7. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi hamda davriy

jamlanma moliyaviy hisobotlarni to'g'ri shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

8. Tuman hokimining Matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi(M.X.Abdushukurova)ga:

mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrda "2024-yil uchun Yangihayot tumanining mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi I-68-203-14-220-K/23-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (S.Vafayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (A.Maxmudov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOGAMOV XAYOT  
ILYASOVICH

Xalq deputatlari Yangihayot tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
II-5-025-14-220-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**2025-yil uchun Yangihayot tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi**

(ming so'mda)

<b>T/R</b>	<b>Daromad turlari</b>	<b>Mablag' miqdori</b>
	<b>Jami</b>	<b>95 113 490,0</b>
1	Aylanmadan olinadigan soliq	5 946 400,0
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	3 366 000,0
3	Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	15 179 750,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 780 800,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	23 741 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	13 892 060,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	14 289 000,0
8	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	325 480,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno)	4 593 000,0

Xalq deputatlari Yangihayot tumani  
Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
II-5-025-14-220-K/24 -son qaroriga  
2-ilova

**2025-yil uchun Yangihayot tumanining tuman mahalliy budjetidan  
hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan  
mablag'larning cheklangan miqdorlari**

ming so'mda

<b>№</b>	<b>Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi</b>	<b>Mablag' miqdori</b>
<b>Xarajatlar miqdori, jami</b>		<b>95 113 490,0</b>
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	34 971 608,0
	shundan:	
	<i>"Mening maktabim"</i>	1 023 188,0
2	Madaniyat bo'limi	1 140 833,0
3	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi	3 650 475,0
4	Sport bo'limi	5 455 666,0
5	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 909 017,0
6	Iqtisodiyot va moliya bo'limi	1 850 558,0
7	Davlat boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari	28 029 987,0
	shundan:	
	<i>Ijtimoiy ko'nikma markazlari</i>	191 418,0
	<i>Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"</i>	115 497,0
	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</i>	16 296 670,0
	<i>"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari</i>	1 650 117,0
	<i>Zaxira jamg'armasi</i>	771 063,0
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tuman tashkilotlari	58 364,0
	shundan:	
	<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	58 364,0

9	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	18 046 982,0
---	------------------------------------	--------------



Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining  
2024-yil 27-dekabrdagi  
II-5-025-14-220-K/24 -son qaroriga  
3-ilova

**2025-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari**

T/r	Tuman nomi	Foiz hisobida								
		Benzin,dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Aylanmadan soliq
		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	20%
1	Yangihayot tumani	23%	22%	0%	27%	0%	26%	100%	100%	